

SIFATLI TA'LIM – TARAQQIYOT POYDEVORI

Muhammadjonova O'g'iloy Bahodirjon qizi

FarDU talabasi

Sherqo'ziyeva Zarnigor Farhodjon qizi

FarDU talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada, yurtimizda amalga oshirilayotgan ta'lim tizimidagi islohotlar, ta'lim tizimidagi o'zgarishlar, shuningdek sifatli ta'lim haqida ma'lumotlar va bu ta'lim tizimining afzallik tomonlari haqida keng ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *"Ta'lim to'g'risida" gi qonun, sifatli ta'lim, ommaviy madaniyat, ta'lim tizimi, maktab ta'limi jarayoni, sog'lom raqobat.*

Abstract: *In this article, the reforms in the educational system implemented in our country, changes in the educational system, as well as information about quality education and the advantages of this educational system are given.*

Key words: *Law "On Education", quality education, popular culture, educational system, school education process, healthy competition.*

Аннотация: *В данной статье приведены реформы в системе образования, проводимые в нашей стране, изменения в системе образования, а также дана информация о качественном образовании и преимуществах данной системы образования.*

Ключевые слова: *Закон «Об образовании», качественное образование, массовая культура, система образования, школьный образовательный процесс, здоровая конкуренция.*

Bugungi kunda ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish davr talabiga aylangan. Ushbu talabdan kelib chiqqan holda, ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlar qabul qilinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni 2020 yil 23- sentyabr kuni qabul qilingan bo'lib, uning maqsadi ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat etib belgilandi. Mazkur qonunga binonan ta'lim sohasidagi asosiy printsiplar, ta'lim tizimi, turlari va shakllari aniq belgilab qo'yildi. Shuningdek, qonunga ko'ra, davlat oliy ta'lim, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalari va ularning filallari Prezident yoki hukumat qarorlari bilan tashkil etiladigan bo'ldi.

Ta'lim sohasidagi amalga oshirilayotgan islohotlarning ma'lum qismini, albatta, oliy ta'lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Ta'lim sohasidagi islohotlardan asosiy maqsad, shaxsning ongi, tafakkuri, zamonaviy dunyoqarashini shakllantirish, davrga hamnafas bo'lgan kadrlarni tayyorlashdan iboratdir. 2023- yil Prezidentimiz tomonidan "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim" deb e'lon qilinishi bularga yaqqol dalil bo'la oladi.

Yaxshi va sifatli ta'lim, ayniqsa, bugungi kunda zaruriy ehtiyojga aylanib bormoqda. Bilimlar poydevorini esa maktab davridayoq mustahkam qurish lozim. Oddiy misol: jamiyatda qaysidir mavqega ega yoki ilm-fan, madaniyat va boshqa sohalarda ma'lum darajaga erishgan inson borki, uning zamirida maktab ta'limining o'rni beqiyos ahamiyatga ega bo'lganini takror va takror ta'kidlaydi. Joriy yil 28 yanvar kuni Prezidentimiz raisligida maktab ta'limini rivojlantirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishidan ko'zlangan maqsad va uning bosh g'oyasi ham maktabni tom ma'noda inson kamolotiga, uning ilmi, madaniyat, ma'rifati hamda tarbiyasiga poydevor bo'ladigan maskan darajasiga olib chiqish, bu borada mavjud muammolarni tahlil qilish, uni bartaraf etish, galdagi vazifalarni belgilashga bag'ishlandi, desak ayni haqiqat bo'ladi.

“Insonga e'tibor va sifatli ta'lim” yili deb e'lon qilingan ushbu yilda umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lgan dolzarb masalalardan biri sifatli ta'lim masalasi ilgari surilgan. Yanada yil nomiga e'tiborimizni qaratsak, markaziy masala inson bo'lib, uning ma'naviy- aahloqiy olami, ilmiy dunyoqarashi, jamiyatimizdagi faol munosabati, kasbiy shakillanishi, mustaqil tafakkurning tarkib topishi, hayotda o'z o'rnini topishida uzluksiz sifatli ta'lim orqali erishishimiz ta'kidlangan. Bu masala umumjamiyat masalasi sifatida ta'lim beruvchi pedagoglar va ta'lim oluvchi o'quvchi, talabalar, otanonalar, ijtimoiy institutlar oldiga katta vazifalarni belgilamoqda.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, ta'lim-tarbiya- kelajak, hayot-mamot masalasi. Qanchalik murakkab bo'lmasin, maktab ta'limiga poydevor bugundan mustahkam qo'yilmasa va kimda-kim maktab bu faqat Xalq ta'limi vazirligining ishi, deb o'ylasa, mutlaq yanglishishi, maktab ta'limi sohasidagi islohotlar vazirlik va idoralar, tarmoq rahbarlari, barcha darajadagi hokimlar, ilmiy tashkilotlar ziyolilar, keng jamoatchilikning vazifasi bo'lishi shart va zarur. Videoselektor yig'ilishida ko'tarilgan masalalarga chuqurroq to'xtalib o'tishdan oldin, avvalo, so'nggi yillarda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan ulkan islohotlarni ta'kidlab o'tishni joiz, deb hisoblayman. Yaqin tarixga bir nazar tashlab ko'raylik. Shavkat Mirziyoev davlat rahbari sifatida faoliyat boshlagan kezlari amalga oshirgan dastlabki xayrli ishlaridan biri umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qish muddatini 11 yil etib belgilagani bo'ldi. Chunki farzandlarimiz ta'limi va tarbiyasida juda katta e'tibor, kerak bo'lsa, nazorat talab qilinadigan vaqtda kasb-hunar kollejariga yuborishni lozim topdik. Natijada nima bo'lgani barchamizga ayon. Biz ularga yaxshi bilim berishni ham, hunar o'rgatishni ham uddalay olmadik. eng achinarlisi, tarbiyasi bilan ham jiddiy shug'ullana olmay, milliy qadriyatlarimizga yot bo'lgan “ommaviy madaniyat” ta'siriga tushishiga sharoit yaratib berdik. Shuning uchun ham davlatimiz rahbarining maktab ta'limini 11 yillik etib belgilash bilan bog'liq dastlabki islohoti otanonalar tomonidan eng to'g'ri va o'z vaqtida qabul qilingan qaror sifatida e'tirof etildi. O'tgan vaqt davomida shaxsan davlatimiz rahbari tashabbusi bilan yoshlarning ta'lim-tarbiya olishiga keng imkoniyat yaratib berishga xizmat qiladigan O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi qonuni yangi tahrirda qabul qilindi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasi ishlab chiqildi. Iqtidorli o'quvchilarni aniqlash, ular qobiliyatini yanada rivojlantirish, maktab ta'limi jarayoniga o'qitishning ilg'or metodlarini joriy etish, zamonaviy bilimlar va chet tillarni puxta o'zlashtirish maqsadida Prezident, ijod va ixtisoslashgan maktablar faoliyati yo'lga qo'yildi. Yuqorida maktab ta'limi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning ayrim jihatlariga e'tibor qaratdik, xolos. Lekin bugun xalq ta'limi tizimidagi maktablar holati, moddiy-texnik imkoniyatlari, o'qitish sifati va samaradorligi qanday ekanini tahlil qilish, mavjud muammolar haqida mulohaza yuritish ham foydadan xoli emas. Maktab ta'limidagi bugungi mavjud holat ro'y rost bayon etilgan va asosli ravishda tanqid qilingan videoselektor yig'ilishida bildirilgan fikrlar, keltirilgan faktlar hamda raqamlarni tahlil qilar ekanman, ta'lim sohasida uzoq yillar faoliyat olib borgan pedagog sifatida o'z fikr-mulohaza va takliflarimni bayon etishni lozim topdim. Keling, maktablarda olib borilayotgan ta'lim-tarbiya jarayonidan kelib chiqib, o'z oldimizga o'quvchilarni qaerda o'qityapmiz, qanday o'qityapmiz, kim o'qitmoqda, degan savollar qo'yib, shu savollarga javob berishga urinib ko'raylik.

Aytish joizki, xalq ta'limi tizimida foydalanib kelinayotgan ta'lim standartlari, o'quv dasturlari faqatgina nazariy bilim berishga yo'naltirilgan bo'lib, o'quvchilarni mantiqiy fikrlash, amaliy ko'nikmalarini shakllantirish, Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, ularni hayotga tayyorlashga xizmat qilmaydi. Maktab kutubxonalaridagi kitob fondlari yillar davomida yangilanmagani va yurtimizdagi 615 ta maktabdagina milliy musiqa anjomlari mavjudligi esa yoshlarni "Besh tashabbus" doirasida kitobxonlikka keng targ'ib qilish, milliy musiqaga qiziqishini oshirishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Maktablarda faoliyat olib borayotgan 504 mingdan ziyod o'qituvchining 12 foizi o'rta maxsus ma'lumotli, 38 foizida esa umuman, malaka toifasi yo'qligi, bu pedagoglarning dars o'tish mahorati etarli emasligi ham jiddiy muammolardan. Sog'lom raqobat muhiti yo'qligi, o'qituvchilarning o'z ustida mustaqil ishlashi va ularni rag'batlantirish tizimi yaratilmagani, o'qituvchi sifatli dars o'tish emas, ko'proq soat olishga intilishi ta'limga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillardan bo'lib, o'tgan o'quv yilida respublika bo'yicha 84 ta maktabning birorta bitiruvchisi oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kira olmagan buning yaqqol isbotidir.

Xulosa qilib aytganda, maktabda har bir o'quvchining o'ziga xos layoqati mavjud. Agar biz maktab ta'limida o'zgarish qilishni millatning, xalqning ertangi kunikelajagiga bog'liq jiddiy masala sifatida qabul qilar, o'qituvchilar o'z faoliyatiga kreativ yondashib, boladagi layoqatni qobiliyat darajasiga ko'tara olar ekanmiz, farzandlarimiz aqlli, bilimli, raqobatbardosh mutaxassis sifatida kamol topadi. Zotan, yurtimizdagi har bir bolaga sifatli ta'lim-tarbiya berish, ularni qo'llab-quvvatlash, iqtidor va qobiliyatini ruyobga chiqarishga etarli sharoit yaratib berish barchamizning asosiy vazifamizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. [1.http://old.lex.uz/docs/;](http://old.lex.uz/docs/)
2. <https://anticorruption.uz/uz/item/what-is-corruption;>
3. "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni 23.09.2020 yil
4. ugli Egamberdiyev, O. A., ugli Maxamadjonov, J. Z., & kizi Sobirova, A. M. (2022). NEED TO FORM CREATIVE COMPETENCE IN EDUCATORS. Educational Research in Universal Sciences, 1(3), 162-165.
5. ugli Egamberdiyev, O. A., ugli Maxamadjonov, J. Z., & kizi Sobirova, A. M. (2022). USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL ACTIVITY OF EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. Educational Research in Universal Sciences, 1(3), 166-169.
6. ugli Egamberdiyev, O. A., ugli Maxamadjonov, J. Z., & kizi Sobirova, A. M. (2022). DIFFERENT APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF CHILDREN'S SPEECH. Educational Research in Universal Sciences, 1(3), 158-161.
7. Oyatillokh Alishero'g'li, E. (2022). Ways and Methods of Formation of Communicative Competence in Future Teachers. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(4), 63-65.
8. Oyatillokh Alishero'g'li, E. (2022). Ways and Methods of Formation of Communicative Competence in Future Teachers. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(4), 63-65.
9. Iqboljon O'g'li, T. J., & Alisher o'g'li, E. O. (2022). THE IMPORTANCE OF PHYSICAL EDUCATION IN THE FORMATION OF PSYCHOLOGICAL HEALTH OF A PERSON. PEDAGOGS jurnali, 9(3), 4-7.
10. Alisher o'g'li, E. O. (2022). Issues of Retraining and Professional Development of Pedagogical Personnel. The Peerian Journal, 5, 192-194.
11. Yusufovich, A. A., & Alisher o'g'li, E. O. (2022). PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES FOR THE FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(6), 1157-1161.
12. Alisher o'g'li, E. O., & Zokirjon o'g'li, M. J. (2022). The Role of Psychology in the Treatment of Heart Failure in Humans. European Multidisciplinary Journal of Modern Science, 5, 500-502.
13. Ахмедов, А., Эгамбердиев, А., & Сотволдиева, О. (2022). The role of pedagogical technologies in improving the quality of education. Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar, 1(1), 59-60.
14. Alisher o'g'li, Y. O. (2022). IJTIMOY MUHITNING SHAXS RIVOJLANISHIGA TA'SIRI. PEDAGOGS jurnali, 18(1), 220-225.

15. Yusufovich, A. A. (2022). PEDAGOGICAL ASPECTS OF FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS. *Science and Innovation*, 1(4), 136-138.